



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 23-avgust, shanba,  
96 (24.122)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Ko'pning  
kuchi —  
karomat

# Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

## VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

## Имкониёт, шароит ва кўмак натижа бермоқда

**Давлатимиз раҳбарининг тadbиркорлар билан жорий йилги учрашуви ҳам тақлиф ва ташаббусларга бой бўлди. Албатта, бевосита таниш бўлмаган исталган одамда "бу каби саъй-ҳаракатлар самара беряптими, натижа қанақа?", деган савол тугилиши мумкин.**

Аслида, тadbиркорликни ривожлантириш учун қонуний шароит ва кулай шарт-шароит яратиб берилгани натижасида соҳа борган сари ривожланмоқда. Хусусан, сўнги беш йилда вилоятимизда 20,3 мингта тadbиркорга 25,2 триллион сўмлик солиқ имтиёзлари қўлланилди. Пировардида биргина қўшимча қиймат солиғи тўловчилар сони 2017 йилдаги 491 тадан 15 мингтага етиб, 31 баробарга ошди.

Албатта, тadbиркорликни ривожлантиришда асосий масала уларни молиявий қўллаб-қувватлаш ҳисобланади. Юртимизда айна масалада ҳам барча молиявий воситалар яратилган.

Улардан фойдаланиб, жорий йилда тadbиркорликка 6 триллион сўмга яқин кредитлар ажратилди. Фақат дастурлар доирасида 45 минг шахсга 1,3 триллион сўмлик имтиёзли кредитлар берилди. Бунинг ҳисобига 46 минг нафар фуқаронинг бандлиги таъминланди.

Умуман, вилоятда жорий йилнинг ўзида тadbиркорлар сони 6,1 мингтага кўпайиб, 74,3 мингтага етди. Шундан кичик тadbиркорлик субъектлари 66 минг, ўрта тadbиркорлик субъектлари 8,1 минг, йирик тadbиркорлик субъектлари 603 тани (товар айланмаси 100 миллиард сўм ва ундан ортиқ) ташкил этди.

Давлатимиз раҳбарининг 2023 йилда тadbиркорлар билан ўтказган очик мулоқотида уларнинг фаолиятини баҳолаш ва қўллаб-қувватлаш рейтинг асосида юритилиши белгилаб берилган эди. Бу борада ўтган даврда 2 та фармон ва 2 та қарор қабул қилиниб, тизим яратилди.

Тadbиркорлар бу ишлар моҳияти ва соҳа ривожидagi аҳамиятини тўғри тушуниб, ўз рейтингини яхшилашга ҳаракат қилмоқда. Биргина жорий йилда юқори барқарорлик даражасидаги корхоналар 334 тага кўпайиб, уларнинг сони 1171 тани ташкил этмоқда.

Ўрта барқарорлик даражасидагилари эса 1067 тага кўпайиб, 9548 тага ва қониқарли барқарорлик даражасидагилар 988 тага кўпайиб, 17900 тага етди.

Мисол учун, Ургут туманида қуйи тоифага мансуб корхоналар 1577 тадан 1457 тага камайиб, 120 та корхона қониқарли тоифада қолган.

Энди бор эътиборимизни қуйи тоифадаги 16,2 мингта корхонага қаратиб, улар рейтингини яхшилаш чораларини кўрамиз.

Кичик ва ўрта бизнес субъектларини йириклаштиришга кўмаклашиш орқали уларни

"чемпион тadbиркор"га айлантириш бўйича ҳам муайян ишлар олиб борилмоқда. Хусусан, 49 та корхона чемпионлик мезонлари асосида танлаб олиниб, уларга кўрсатилган ёрдамлар натижасида ишчилар сонини 4 минг нафарга, товар айланма ҳажминини 4 триллион сўмга, экспорт ҳажминини 108 миллион долларга оширишга эришилди.

Бундан ташқари, 8 та тadbиркор йиллик товар айланма ҳажминини 100 миллиард сўмдан ва иш ўрнини 500 тадан ошириб, вилоят даражасидаги "чемпион тadbиркор"га олиб чиқилди. Энди уларни республика миқёсидаги "чемпион"га айлантириш чораларини кўряпмиз.

Мисол учун, Паст Дарғомдаги "NEW TECH SAMARKAND" масъулияти чекланган жамиятига берилган кўмаклар ҳисобига 1 март ҳолатига туман даражасидаги чемпионликдан бугунги кунда вилоят даражасидаги (ишчи сони 1025 нафар, товар айланмаси 242,2 миллиард сўм) "чемпион"га айланди.

Давлатимиз раҳбарининг тadbиркорлар билан жорий йилги очик мулоқотида тadbиркорларимиз томонидан **1078 та мурожаат бўлган. Шундан, 836 таси ижобий ҳал этилиб, қолган 241 та мурожаат вилоят ҳокими назоратида кўриб чиқилмоқда.**

Дарвоқе, жорий йилнинг биринчи ярмида **670 миллион доллар хорижий инвестиция ўзлаштирилиб, ўтган йилга нисбатан 28 фоизга ўсишга эришилди.**

Йил якунигача 340 миллион долларлик 14 та йирик лойиҳа ишга туширилади. Жумладан, sanoat ривожланмаган Пахтачи туманида "Зиёвуддин инвест текстил" масъулияти чекланган жамияти томонидан қиймати 16,3 миллион долларлик трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўлга қўйилади.

Вилоятда экспорт масаласига ҳам алоҳида эътибор бериб, экспортёрларни ҳар тарафлама қўллаб-қувватлаш ва уларга берилган имтиёزلардан фойдаланиш натижасида сўнги 5 йилда вилоятнинг экспорт ҳажми 2,5 баробарга ошди.

Қайд қилиш лозимки, ўтган 7 ойда 553,1 миллион долларлик маҳсулотлар экспортга чиқарилиб, йиллик режа 65 фоизга бажарилди.

Бугунги кунда кичик бизнес субъектларининг вилоят ялли худудий маҳсулотдаги улуши 68,2 фоизни ташкил этмоқда.

**Шербек БҲРОНОВ,**  
вилоят ҳокимининг  
биринчи ўринбосари.

**Ватанимиз мустақиллигининг 34 йиллиги муносабати билан ўтказилаётган анъанавий "Энг улуғ, энг азиз" кўрик-танловининг вилоят босқичи ғолибларини тақдирлаш маросими бўлиб ўтди.**

Вилоят ҳокимлиги, Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси вилоят бўлими, вилоят маданият бошқармаси, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси, Ўзбекистон Бадий академияси ва "Тасвирий ойна" ижодий уюшмаси вилоят бўлими, вилоят телерадиоканали ҳамкорлигида ташкил этилган танловда 29 нафар ижодкор 200 дан ортиқ ижодий ишлари билан қатнашди.

— Бу йилги танловга самарқандлик ёзувчи ва шоирлар, журналистлар, тасвирий санъат намояндлари, кўшиқчилик, фото ва дизайн усталарининг "Ватан учун, миллат учун, халқ учун!" деган бош ғояни ўзида мужассам этган ижодий ишлари тақдим қилинди, — дейди Ўзбекистон журналистлар уюшмаси вилоят бўлими раиси Акрам Ҳайдаров. — Ижодий ишларда мамлакатимизда, хусусан, вилоятимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар аҳолининг турмушини яхшилаш, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга хизмат қилаётгани, одамлар онгу тафаккуридаги ўзгаришлар маҳорат билан ёритилган.

Танловда ёзувчи ва шоирларнинг бадий асарлари, журналистларнинг публицистик наشرлари, босма оммавий ахборот воситалари ходимларининг ижодий ишлари, оммавий ахборот воситаси сифатида рўйхатга олинган веб-сайтлардаги интернет-журналистика материаллари, телевидение ва радио ижодкорларининг кўрсатув ва эшиттиришлари, тасвирий санъат, фото асарлари ва дизайн ишлари, санъаткорларнинг юртни

## ИЖОДКОРЛАР ЭЪТИРОФ ЭТИЛДИ



мадҳ этувчи куй ва кўшиқлари номинациялари бўйича 16 нафар ғолиб аниқланди.

Ғолибларни тақдирлаш маросимида вилоят ҳоки-

ми вазифасини бажарувчи А.Бобоев ижодкорларнинг заҳматли меҳнатларини эътироф этди, уларга диплом ва эсдалик совғаларини топширди.

## ТАЙИНЛОВЛАР



**Йўлдошев Шерали Мамараймович** Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридagi Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг вилоят бошқармаси бошлиғи;  
**Жабборов Исроил Исмоилович** Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси вилоят бошқармаси бошлиғи;  
**Раҳматуллаев Алимардон Тўрамурадovich** вилоят ҳокимлиги ташкилий-кадрлар гуруҳи раҳбари;  
**Шукуров Акмал Ғайратovich** вилоят қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида худудий назорат қилиш инспекцияси раҳбари этиб тайинланди.



## Обод ва файзли маҳалла — юрт кўрки

**Ватанимиз мустақиллигининг 34 йиллиги муносабати билан 22-23-август кунлари мамлакатимизда шу шоир остида умумхалқ хайрия ҳашари ўтказилмоқда.**

Кеча вилоятимиздаги 1081 маҳалланинг барчасида, шунингдек, корхона ва ташкилотлар, муассасаларда эрта тондан худудларни ободонлаштириш тadbирлари бошланди. Қабристон ва зиёратгоҳлар худуди тозаланди. Бу юмушларни бажаришда каттаю кичик — барча юртдошларимиз фаол иштирок этмоқда.

Ҳашар давомида маҳаллалардаги эҳтиёжманд оилалар, кексалар ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳолидан хабар олиниб, уларга тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатилмоқда. Умумхалқ хайрия ҳашари бугун ҳам давом этади.

## Пиёдалар йўлаклари ва спорт майдончалари нега эътибордан четда қоляпти?



Пиёдалар ва велосипед йўлаклари фақатгина хавфсиз ҳаракатланишни таъминлаш учун эмас, балки соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, замонавий шаҳарсозликни ривожлантириш ва тирбандликни камайитириш мақсадида ташкил этилган. Бироқ амалда йўлақлардан бошқа мақсадларда фойдаланилмоқда.

(Давоми 3-саҳифада) >>>

## ҲАШАР НИМА, у фақат бизга хосми?

**Шу каби саволларимизга сунғий интеллектнинг жавоблари қизиқми? Унда қуйидагиларни ўқиб кўринг!**

**Ҳашар нима?**

Ҳашар — бу ўзбек халқининг қадимий ва мустақкам ижтимоий анъаналаридан бири бўлиб, одамларнинг ўзаро ёрдам ва ҳамкорлигига асосланган. Унинг асосий хусусияти — ишларнинг ижроси учун одамларнинг ўз ихтиёри билан, бепул ва биргаликда қатнашишидир.

(Давоми 3-саҳифада) >>>



Мақур мақоланинг  
тўлиқ матнини  
ушбу QR-код орқали  
ўқинишга мумкин.

## YOZMASAK BO'LMAYDI

Maktab hojatxonalarini  
qachon talabga javob  
beradi?

Yaqinda viloyat hokimligida bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida olib borilayotgan ishlar tahlili hamda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati muhokama etildi. Unda tuman shahar hokimlariga 171 ta maktabning hojatxonalarini o'quv yili boshiga qadar ta'mirlash yoki yangisini qurish bo'yicha topshiriqlar berilgan bo'lsa-da, hozirgacha ushbu masala oxiriga yetkazilmagani tanqid qilindi. Misol uchun, Payariqda 19 ta, Ishtixonda 15 ta, Urgutda 12 ta, Past Darg'omda 9 ta, Jomboy, Qo'shrabot tumanlari va Samarqand shahrida 7 tadan, Toyloqda 6 ta, Nurobod va Samarqand tumanlarida 3 tadan maktab hojatxonalarini tayyor emasligi aniqlangan.

Biz ushbu masalaga yanada oydinlik kiritish maqsadida Payariq tumanidagi ayrim maktablarda bo'lib, hojatxonalar ahvoli, maktabning sanitariya-gigiyena holati bilan tanishdik.



Dastlab tumandagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'ldik. Maktab 290 o'rinni bo'lib, 340 nafar bola o'qiydi. Maktab hojatxonasi o'quv binosidan 20-30 metr uzoqlikda, unga borish uchun betonli yo'lak qilingan. Ammo yerdan kovlab qilingani bois sassiq hid anqib turibdi. Burchakda chiqindi uchun eski chelak bor, xolos. Hojatxonaga elektr energiyasi ulanmagan. Tabiiyki, bunday maktab hojatxonalarini qishda isitilmaydi, bunga sharoit ham qilinmagan.

Maktab hovlisida qo'l'bola usulda qo'l yuvish moslamasi o'rnatilgan. Maktabimiz 2022-yilda rekonstruksiya qilingan, - deydi maktab direktori G'ayrat Maxamatov. - Faqat hojatxona zamon talablariga javob bermaydi, bizga yangi hojatxona qurib berilsa yaxshi bo'lardi. Shuningdek, kutubxonamizning tomi chirib ketgani uchun tom qismini ochib tashlaganmiz. Shuni yopish uchun tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga xat qilganman.

Haqiqatda maktab kutubxonasi eski binoda joylashgani uchun shifti yaroqsiz holga kelgan, bironvaga zarar yetkazmasin, deb tom qismi ochib tashlanibdi. O'quv yiliga sanoqlik kunlar qolgan bo'lsa-da, kutubxonaga ustini yopishga hali qurilish materiallari berilmagan.

Texnikum bitiruvchilari  
suhbat asosida o'qishga  
qabul qilindi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining bakalavriat bosqichiga texnikum bitiruvchilari uchun imtihon bo'lib o'tdi.



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi "Texnikumlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida bu yil texnikumni muvaffaqiyatli tamomlaganlardan olti nafar talabgor institutga o'qishga kirish uchun hujjat topshirdi. Ulardan ikki nafari G'allaorol agrotexnologiyalar texnikumidan

institutning o'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishiga, to'rt nafari Jomboy agrotexnologiyalar texnikumidan buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishiga o'qish istagini bildirdi.

Suhbat davomida talabgorlarning bilimi, dunyoqarashi, yurtimizdagi o'zgarishlardan boxabarligi hakamlar tomonidan tekshirildi. Suhbat natijasiga ko'ra, talabgorlarning besh nafari 2-bosqichdan talabalikka tavsiya qilindi.

Tuman hokimligi tomonidan 14 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi hojatxonalarini ta'miri va yangi qurilayotgan beshta maktab hojatxonasi uchun 220 million so'm ajratiladi. Yana 763 million so'm mablag' ajratish rejalashtirilgan.

Biz tuman maktablaridagi sanitariya-gigiyena holatini o'rganib, xulosa qildikki, hali qishloq joylarida zamonaviy hojatxona haqida o'ylab ham ko'rilmaydi. Nahotki, zamon o'zgarгани, kishilarning yashash sharoiti yaxshilangani maktablarda sezilmayapti?

Biz yuqoridagi hojatxonalarda suv va dizenfeksiya vositalarini umuman uchratmadik. Lo-aqal hojatxonalarda qog'oz qo'yiladigan joy qilinmagan. Bu qog'oz ham qo'yilmagidan darak emasmi? Buning uchun ham maktab ma'muriyatini ayblay olmaymiz. Sababi, maktablarga hech qachon hojatxona qog'oz, dizenfeksiya vositalari berilmaydi.

Qahraton qishida bunday hojatxonalar bolalarning qatnashini ko'z oldingizga keltiring. O'quv binosidan uzoqda, isitish tizimi umuman o'rnatilmagan, nomiga qo'yilgan eshiklari hatto ichkaridan qulflanmaydigan, chirog'i yonmaydigan hojatxonalar bugungi kun talabiga qanchalik javob beradi? Tashqarida qo'l'bola usulda yasalgan qo'l yuvish jo'mraklari qishda muzlab



qolishi tayin. Xo'sh, bolalar qaerda qo'l yuvadi? Qo'l yuvish jo'mraklari oldida ham sovun qo'yiladigan joy yo'q. Buni mas'ullar nega shu paytgacha o'ylab ko'rilmagan?

Bizni qiziqtirayotgani maktablarda yangi qurilayotgan hojatxonalar unitazli, devori va poli kafelli, isitish tizimi mavjud, eshigi qulflanadigan, chirog'i, rakovinasini bo'ladimi yoki yuqoridagi singari nomiga qurib beriladimi? Buni biz tuman hokimligi mas'ullaridan so'ramadik. Aksincha, viloyatdagi barcha tuman (shahar) hokimliklari o'zlari qurayotgan maktab hojatxonalariga zamon talabiga xos yondashadi, degan umidda savolimizni maqola orqali beryapmiz.

Hurmatli mas'ullar, zamon o'zgarгани, siz ham tafakkuringizni o'zgartiring!

Yana bir gap. 2025-yilning 1-maydan boshlab O'zbekistonda "Toza qo'llar" dasturi amalga oshirilmoqda. Dastur doirasida barcha sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalarida qo'l yuvish joylarini zarur sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta'minlash rejalashtirilgan. "Toza qo'llar" dasturiga ko'ra, joriy yilning may oyida Payariq tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga 195170570 so'mlik antiseptik vositalari, 130083000 so'mlik suyuq sovun, 360000000 so'mlik hojatxona qog'oz berilgan. Ammo mas'ullarning aytishicha, ushbu sanitariya-gigiyena vositalari maktablarga hali tarqatilmaydi.

Xuddi shunday sanitariya-gigiyena vositalari boshqa tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga ham yetkazilgan bo'lishi kerak.

Avval odob,  
keyin bilim:

endi Toyloqda ham xususiy maktab bor

Bugun viloyat markazlarida zamonaviy xususiy maktablar faoliyat olib boryapti. Ammo tumanlarda xususiy maktablar kam. Masalan, shu paytgacha Toyloq tumanida xususiy maktab yo'q edi.

- Yaqinda tuman markazidan xususiy maktab ochdik, - deydi maktab asoschisi Sunnatulla Abdullayev. - 2025-2026-o'quv yili uchun 1-sinf dan 10-sinf gacha bolalarni o'qishga qabul qilyapmiz. Darslar ertalab soat 08:00 dan boshlanadi va bolalar 17:00 gacha maktabda bo'ladi. Darslar davlat ta'lim standartlari asosida o'tiladi. Tushlikdan so'ng o'quvchilar fan va sport to'garaklarida qatnashadi. Shuningdek, berilgan uyga vazifalar shu yerning o'zida bajariladi. Bundan tashqari, har bir sinfda yigirma nafar o'quvchi o'qiydi. Bundan ortiq o'quvchi qabul qilinmaydi.

Birinchi o'quv yilida 350 nafar, keyingi yildan 800 nafargacha o'quvchini xususiy maktabga qabul qilamiz. Ayni damda yana qo'shimcha qurilish ishlari olib borilyapti.

Maktabimizning afzallik tomoni shundaki, har olti oyda o'quvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazamiz. Har ikki oyda bolalar psixolog xizmatidan foydalanadi, ya'ni turli psixologik jarayonlarga tushib qolmaslik uchun bolalarni psixolog nazorat qilib boradi. Shuningdek, o'quvchilar uchun transport xizmati yo'lga qo'yiladi, uch mahal dietolog tomonidan tavsiya qilingan taomlar beriladi.

O'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida stipendiya joriy qilinganmiz. Har oylik imtihon natijalariga qarab, a'loch o'quvchilarga 200 ming so'mdan 1 million so'mgacha stipendiya beriladi.

Bizda o'quvchilar maktabda qo'l telefoni ishlatmaydi. Mobil telefonlar maktabga kirishda olib qo'yiladi. Zarur holatlarda o'quvchi o'qituvchining telefonidan foydalanadi. Qo'l telefoni o'quvchilar uyiga ketishida qaytarib beriladi. Har bir sinfda o'quvchi uchun alohida shaxsiy javon bo'lib, u uy vazifalarini bajargach, kitob va daftarlarini shu yerdan qoldirib ketadi. O'quvchilar uyiga borib yana dars tayyorlab o'tirmaydi. Maktabda o'quvchilarning

bilim darajasini oshirish va ularning qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ingliz va rus tillari, matematika, kimyo, biologiya, IT fanlari qo'shimcha soatlar bilan kengaytirilgan holda o'rgatiladi.

- Hozircha ikkita universitet bilan memorandum imzoladik, - deydi S.Abdullayev. - Ular o'quvchilarimizni tavsiyanomamiz asosida o'qishga qabul qiladi. Yil oxirigacha o'ndan ortiq oliy ta'lim muassasasi bilan xuddi shunday memorandum imzolashni rejalashtirganmiz. Albat, tavsiyanomani hammaga ham beravermaymiz.

Dastlab o'zim ikki yil o'quv markazida ishladim, uning ish faoliyatini o'rgandim. So'ngra tumanda o'quv markazi ochdim, unga bilimli, tajribali o'qituvchilarni jalb qildim. Natijalarimiz yomon bo'lmadi, to'rt yildan ortiq vaqt mobaynida yuzlab o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishiga ko'maklashdik. Ishlarimiz oldinga siljiy boshlagach, o'quv markazining ikkita filialini ochdik. Biz izlanishda, o'sishda davom etmoqdamiz.

O'quvchilarga milliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda xalqaro darajadagi bilim va ko'nikmalarni berishni maqsad qilganman. Shuning uchun ham maktabimizda o'quvchilarning odobi, axloqiga alohida e'tibor beriladi. Avval odob, keyin bilim berilsa, natijada erishiladi. Bu jahon tajribasida sinovdan o'tgan metod.

Xususiy maktabimizning oylik to'lovi Samarqand shahridagi xususiy maktablardan ko'ra ancha arzon, ya'ni oyiga 2 million 300 ming so'm. Tumandoshlar iqtisodiy sharoitini hisobga olgan holda shunday narx belgiladik.

Bugun viloyatda 44 ta xususiy maktab bo'lib, ularning 22 tasi Samarqand shahrida, qolganlari tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Hozircha Paxtachi, Narpay, Qo'shrabot tumanlarida xususiy maktablar yo'q.

**BODIKAMERA**  
Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib,  
"tana kamerasi" ma'nosida keladi.

**YONKAMERA**  
"Bodikamera" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Yonkamera" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi. Hozirda turli lug'atlar, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatib kelinmoqda.

Poytaxtimizning "Yangi O'zbekiston" bog'ida 2000 nafar yosh muhandis bir vaqtda 1946 ta kichik robot yig'ib, Ginnes rekordlar kitobida O'zbekiston nomini qayd etishdi. Tadbirda faol ishtirok etgan yoshlarning 80 nafari Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabalaridir.

- 18-avgust tarixga "Ginnes rekordi" yangilangan kun sifatida kirdi, - dedi universitetning 2-kurs talabasi Beknazar Abduraimov. - Respublikamizning 12 viloyatidan kelgan 2000 nafar talaba-yoshlarning ko'ngliga bu kun birdamlikni joyladi. Xorijiy vakillarga O'zbekiston yoshlarining kuchi, do'stonaligi va birdamligini isbotladik.



Sahifa materiallarini Xurshida ERNAZAROVA tayyorladi.

(Давоми. Бошланиши  
1-саҳифада).

Хусусан, Самарқанд шаҳрининг Буюк ипак йўли ҳамда Сартепедаги Туркистон кўчалари ёқасидаги пиёдалар йўлакларидан автотураргоҳ сифатида фойдаланилган, шунингдек, тадбиркорлик субъектлари томонидан ноқонуний савдо ва хизмат кўрсатиш учун эгаллаб олинган. Бундан ташқари, мазкур йўлаклар яқинида бошланган ободонлаштириш ишлари якунига етмаган, ариқлар чиқинди билан тўлган. Бу ҳолат фақат йўл ҳаракати хавфсизлигига эмас, балки санитария ва экологик ҳолатнинг ёмонлашишига, аҳолининг турмуш сифати ва шаҳар муҳитига ҳам салбий таъсир кўрсатмоқда.

Шаҳардаги кўп қаватли уйлар ҳудудида жойлашган спорт ва бола-лар майдончаларининг ҳолати ҳам қониқарли эмас. Қузатувларимиз давомида мазкур майдончаларда шугулланаётган ёшлар ёки вақтинчи мазмунли ўтказётган болаларни учратмадик. Чунки аксарият майдончаларнинг худуди қазилган, жиҳозлар чанг билан қопланган, тупроқ уюмлари йиғилиб қолган.

Мирзо Бедил маҳалласи ёшлар етакчиси Абдулазиз Эшматовнинг маълум қилишича, маҳаллада бешта соғломлаштириш майдончаси мавжуд бўлиб, уларнинг хавфсизлиги бошқарув сервис компаниялари зиммасида. Аммо ушбу майдончалардан бошқа

## Пиёдалар йўлаклари ва спорт майдончалари нега эътибордан четда қоляпти?



маҳаллалар ёшлари ҳам фойдалангани боис айрим жиҳозлар таъмирталаб ҳолатга келган. Ҳозирда шаҳарда иссиқлик ва ичимлик суви тизимини яхшилаш мақсадида амалий ишлар бошланган ва спорт майдончалари ҳудудида ҳам тармоқ тортилмоқда.

Шу боис айрим жиҳозлар вақтинча олиб қўйилган бўлиб, лойиҳа якунига етгач, улар қайта ўрнатилиши ва майдонлар таъмирланиши режалаштирилган.

Худди шундай ҳолат Сартепе масивдаги кўп қаватли уйлар атрофида ҳам кузатилди.

– Маҳаллада 4600 нафардан ортик аҳоли истиқомат қилади, – дейди Ҳо-физ Шерозий маҳалласи раиси Зафар

Суннатов. – Худудда учта спорт ва саккизта болалар майдончаси мавжуд бўлиб, уларнинг аксарияти 1984 йилларда қурилган. Жиҳозлар эскирган ва таъмирга муҳтож. Иссиқлик тизимини янгилаш лойиҳаси доирасида бу майдонлар ҳудудидан қазिश ишлари ўтказилмоқда. Қурувчи ташкилот ишлар якунлангандан сўнг майдонларни ободонлаштириши ваъда қилган.

Иссиқлик тизимининг янгиланаётгани яхши, албатта. Аммо бу ишлар қанча пайтда тугаши, спорт ва болалар майдончалари қачон таъмирланиши бўйича ҳеч ким тайинли гап айтмади. Хўш, бу борада масъуллар нима дейди?

**Фазлиддин РЎЗИБОВЕВ,**  
"Зарафшон" муҳбири.

## Ҳашар нима, у фақат бизга хосми?

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).

**Ҳашар** — бирор ишни амалга оширишда кўпчиликнинг ўз ихтиёри билан, бепул ва биргаликда иштирок этиши. Бу амалий ёрдам шакли, кўпинча қишлоқларда ва маҳаллаларда кенг тарқалган. Ҳашарнинг асосий мақсади — жамоат ишларини биргаликда бажариш, ўзаро ёрдам кўрсатиш ва ижтимоий бирдамликни мустаҳкамлашдир.

**– Бошқа халқларда ҳам ҳашарга ўхшаш тадбирлар борми?**

Бошқа халқларда ҳам ҳашарга ўхшаш ижтимоий ҳамкорлик ва ўзаро ёрдам тадбирлари мавжуд. Бу анъаналар кўпинча жамоат ҳаётини мустаҳкамлаш ва биргаликда муҳим ишлар бажаришга қаратилган.

Масалан, **қирғиз халқида ҳашарга ўхшаш ғоя — «айымга»**. Бу ёрдамлашиш ва биргаликда ишлаш тушунчаси бўлиб, кўпинча қишлоқларда уй-жой қуриш, дала ёки боғларни парвариш қилишда ёрдам бериш шаклида намоён бўлади.

**Русларда «Трудовая помощь» ва «Субботник»**. Советлар даврида ва ҳатто, ҳозирги рус жамятида ҳам «трудовае помощь» (меҳнат ёрдами) ёки «субботник» (шанба кунлари ишлаш) каби оммавий ишлаш тадбирлари мавжуд. Бунда одамлар кўнглини равишда мактаб, боғ,

кўча ва бошқа жамоат объектларини тозалашади.

**– Сўнги йилларда «ҳашар» ва «мажбурий меҳнат» тушунчалари аралашиб кетди. Бунга сабаб нима?**

Бу ҳақиқий кўнгли ёрдам ва давлат томонидан тўғридан-тўғри топширилган (ёки босим орқали амалга оширилган) ишларнинг чегараси аниқ белгиланмагани сабабли юз берди.

Кўйда бу ҳолатнинг асосий сабаблари ва изоҳларини келтираман:

**Кўнглилик ва мажбурийлик чегараси ноаниқ бўлиши**

Ҳақиқий ҳашар — бу "ихтиёрий ва кўнгли" ёрдамдир. Аммо айрим ҳолларда одамлардан (мактаб ўқитувчилари, талабалар, давлат хизматчилари, тиббиёт ходимлари ва ҳ.к.) расман кўрсатма ёки босим орқали жамоат ишларига чиқиш талаб қилинади. Бу ҳолатда иш зоҳирда «ҳашар» сифатида кўрсатилади, аммо амалда мажбурий меҳнат ҳисобланади.

**Ижтимоий босим ва "ихтиёрий мажбурият"**

Баъзи ташкилотлар ёки маҳаллий ҳокимиятлар томонидан «ихтиёрий» ҳашарларда иштирок этиш тақлиф қилинса-да, рад этганларга нисбатан босим ёки танбех берилиши мумкин. Бу ҳолат ҳуқуқий нуқтаи назардан мажбурий меҳнат деб баҳоланади, чунки инсонда танлаш эркинлиги йўқ.

**Zamonamizning buyuk allomasi G'aybulloh as-Salomning «Shunday shogird bo'lginki, ustozing sen bilan faxrlansin, shunday ustoz bo'lginki, shogirding sen bilan faxrlansin» degan purmazmun so'zlari aynan rahmatli professor Omirov Rauf Yuldashevich va uning ko'plab shogirdlariga taalluqlidek. Domlamiz Buxoro tibbiyot institutida rektor vazifasida ishlayotganlarida bir shogirdimizning kamina rahbarlik qilayotgan dissertatsiyasining aprobatyasi masalasida borganimizda, ustoz uni nevara shogirdim dedilar, yuragimda bir narsa «jiz» etib ketdi. Tushundimki, ustozimiz bizlarni shunchaki shogirdlari deb emas, balki farzandlari deb bilar ekanlar.**

Xotira



## Ustoz xotirasi abadiy

Otamizdek ulug' domlamiz Rauf Yuldashevichning shunday farzand shogirdlarini nevara shogirdlari nafaqat Zarafshon vohasida, balki Farg'ona vodiysiyu poytaxt Toshkent tuprog'ida o'zlarining fidokorona mehnatlarini bilan ustozning ishonchini oqlab, ruhlarini shod qilib yuribdilar. 78 yil umrning 60 yili tinimsiz mehnatga, insonlar sog'ligi haqida qayg'urishga bag'ishlandi. Xalq va davlat ham jarroh, olim Rauf Yuldashevichning bu xislatlarini yuksak baholab «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach», «SSSR sog'liqni saqlash a'lochisi» kabi unvonlar va «Shavkatli mehnati uchun» medali bilan taqdirladi. Rauf Yuldashevich davlat mukofotiga birinchi bor sazovor bo'lganda 16 yoshda bo'lgan.

Professor Rauf Omirov 1931-yilning 23-avgustida Qirg'izistonning Talas viloyatida tug'ilgan. O'rta maktabni imtiyozli shahodatnoma bilan tugatgach, 1948-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutiga o'qishga kirdi va 1954-yilda imtiyozli diplom bilan tamomladi. Ilmga chanqoq, intiluvchan yosh shifokor shu tibbiyot maskanida ishga qoldirildi.

Shu bilan Rauf Yuldashevichning qaynoq mehnatga to'liq hayoti boshlangan: umumiy xirurgiya kafedrasida aspirantura, assistentlik (1960-yildan), fakultet xirurgiya kafedrasida dotsentlik, professorlik (1967-yilda), kafedra mudirligi. 1988-yildan Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti xirurgiya kafedrasini, 1989-yildan esa Andijon tibbiyot instituti fakultet xirurgiya kafedrasini boshqargan. R.Omirov 1998-yil Buxoro tibbiyot institutida o'quv ishlari bo'yicha prorektor, so'ng rektor vazifasini bajaruvchi, xirurgiya kafedrasini mudiri lavozimida ishlab, institutning tashkil etilishi va oyoqqa turishida katta hissa qo'shdi. So'ngra Samarqand tibbiyot institutida ishlash, bir muddat Qirg'iziston tibbiyot oliygohida xirurgiya kafedrasini mudirligi... Eh-he, domlamiz «tibbiyotda Furqat» edilar desak, balandparvoz bir gap aytgan bo'lmaymiz.

Olim sifatida, vrach-jarroh sifatida Rauf Yuldashevich doim eng dolzarb muammolarga qo'l



urardilar, o'zlari jon-dillari bilan bu ishlarga kirishardilar va shogirdlarini ham to'laligicha bunga jalb qila oldilar. Zero, domlaniy yoshlarni, shogirdlarni o'ziga tortadigan qandaydir bir mehriyolari bor edi. Nomzodlik ilmiy ishlari qalqonsimon bez kasalligi — buqoqning viloyatimizda tarqalishi, uni davolashga bag'ishlangan bo'lsa, doktorlik ilmiy izlanishlari dunyo miqyosida yechimini topishi zarur bo'lgan atrof-muhitni zararli omillardan saqlash, pestsitsidlarning suyak sinialari bitishiga salbiy ta'siriga va uni bartaraf etish masalalariga bag'ishlanganki, ayniqsa, oxirgi muammoga qo'l urishga o'sha

davrlarda hamma ham botina olmasdi. U zamonlarda yuqori rahbariyatni inson sog'ligi emas, ko'proq paxta daromad qiziqtirardi. Natijada domlamiz o'zining haq ekanligi, olingan natijalarga jamoa e'tiborini qaratish zarurligini isbotlash uchun ne-kunlarni boshlaridan o'tkazmadilar. Domlamiz mintaqamizda bo'yo'nalish («Xirurgiya ekologiyasi») asoschisi edilar.

Zahmatkash olim atrofida jipslashgan ilmga chanqoq yoshlar o'ziga xos bir ilmiy maktabni tashkil etgan ediki, hozirgi kunda ham bu maktab namoyandalari, domlaniy shogirdlari uning an'analari rivojlantirib, davom ettirib kelmoqda. Rauf Yuldashevich avvalo, chuqur bilimli, keng tajribali klinitsist va yana usta jarroh edi. Oxirgi paytlarda qariyb uchramay qolgan buqoq kasalligi yana ko'paya boshlaganda, domlaniy bo'yo'nalishdagi bebaho tajribasi va kuchli jarrohlik ko'nikmalari qay darajada asqotgani ko'pchilikka ma'lumdur.

Domlamiz mazmunli hayot kechirdilar, hayotda, ilm-fan sohasida yuqori cho'qqilarni egaladilar, shogirdlaridan yolchidilar, farzandlarining ham huzurini ko'rdilar. Buyuk jarroh Bilrot «O'quvchilarning muhabbati va do'stlarining dillarini maftun etgan olim baxtlidir», deb yozgandi. Domlamiz shunday inson edi, oxiratingiz obod bo'lsin, Ustoz!

**Saloh ALLAZOV,**  
Samarqand davlat universiteti urologiya kafedrasini professori.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Xidoyatov Abdullaga (2012-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Umarova Zarxolga (2025-yil 18-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Rashidov Karim Abdurashidovichga (2022-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboevich notarial idorasida marhum Muxtarov Alisher Israilovichga (2019-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Gaibov Tolibga (2018-yil 12-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Islamov Tolibjonga (2023-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Burliyev Abdurazzoqga (2011-yil 2-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Islamov Kadir Avganovichga (2023-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Raximova Zurafo Xudoyorovna (2024-yil 23-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xaydarova Saidaga (2015-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.**

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Istamkulova Muxaramga (2019-yil 28-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Rizayev Alisherga (2015-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Mukumov Erkin Anorovichga (2024-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani "Salovot" MFY.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Butayev Abdullalil Ismoilovichga (2024-yil 13-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Nazarov Baxturga (2023-yil 21-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Sayidov Shavkat Zaripovichga (2022-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

### BEKOR QILINADI

Sotuvchi "GOLD SYSTEM" MCHJ direktori Raxmatov Mirzoxid Jonqobulovich va sotib oluvchi "USHABINA" MCHJ direktori Kulbuldiev Bekzod Amirovichlar o'rtasida Payariq tumani "Bunyodkor" MFY, Istiqlol ko'chasi, 702-uy manzillida joylashgan "Avtogaraj idora binosi" uchun "SAMARQAND DILLER RIELTOR SERVICE" MCHJ vositachiligida 2021-yil 28-sentabrda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 333-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomada asosida 2021-yil 28-sentabrda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

### TOPGANGA MUKOFOT

Sadatov Marat Djumaevichning 2024-yil 29-iyulda berilgan "BC" toifali, AG 2157862 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasi topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99893-752-99-91.**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Samarqand viloyati boshqarmasiga tegishli davlat raqami belgisi 30 092 AVA bolgan "Nexia-3" rusumli avtotransport vositasining orqa qismidagi davlat raqami belgisi "Narpay - Samarqand" yo'lida tushib qolgan. Ushbu davlat raqami belgisini topganlar Departamentning Samarqand viloyat boshqarmasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Murojaat uchun telefonlar**  
**+99871-202-86-67,**  
**ichki raqam 8907 yoki 8955).**

Қатағон қурбонлари хотираси



1937-1938 йилларда амалга оширилган ва тарихга "катта қирғин" номи билан кирган, қатағон домига тушган кишиларга оид ҳужжатлар билан танишар эканман, бир жиҳат эътиборимни тортди. "Халқ душмани", "аксилнқилобий гуруҳ аъзоси", "зараркунандачилик билан шуғулланган", деган айблар билан НКВД томонидан ҳибсга олинган кишилар 15-20 кун давомидаги сўроқларда ўзига қўйилган айбларни бутунлай инкор қиладилару лекин маълум муддатдан сўнг уларни "тан" ола бошлайдилар. Қатағонга учраган ўнлаб, юзлаб кишиларнинг "жиноий ишлари" битилган архив ҳужжатларини варақлаш жараёнида бунинг сабабини англаб етдим. Уларнинг барчаси НКВД жаллодлари томонидан оғир жисмоний қийноқларга дучор этилган. Қуйида қисман келтирилаётган тергов баённомасидан парчани ва бу кулфатларни бошидан кечирган айрим кишиларнинг кўрсатмаларини ўқир экансиз, бунга ўзингиз ҳам ишонч ҳосил қиласиз.

# Ҳибсга олинганлар аёвсиз таҳқирланарди...



**Бойбеков Ҳамид Содиқович, 1899 йилда Москва вилояти Кремишин туманининг Азеево қишлоғида туғилган. Маълумоти қуйи, ВКП(б) аъзоллигига номзод, НКВДнинг Самарқанд вилояти бошқармаси тезкор вакили вазирида ишлаган. Самарқанд шаҳар К.Маркс кўчаси, 43-ўйда яшаган. 1939 йил 18 апрелда гувоҳ сифатида сўроқ қилинган. Сўроқни ЎзССР НКВД котибияти бошлиғи, давлат хавфсизлиги лейтенанти Мартиненко ўтказган.**

**Савол:** Сиз 1937-1939 йилларда НКВДнинг Самарқанд вилояти бошқармасида қим бўлиб ишлагансиз?

**Жавоб:** 1938 йил апрель ойида мен Самарқанд шаҳар 4-милиция бўлимининг бошлиғи вазирида ишлаганман. 1938 йил апрель ойидан Давлат хавфсизлиги вилоят бошқармасига ўтказилдим ва ушбу бошқарманинг тезкор вакили этиб тайинландим.

**Савол:** Давлат хавфсизлиги Самарқанд вилояти бошқармаси томонидан амалга оширилган оммавий операция (тадбир)ларда иштирок этгансизми?

**Жавоб:** 1938 йилдан тезкор гуруҳ аъзоси сифатида оммавий операцияларда қатнашганман. Бу ишга НКВД вилоят бошқармасининг собиқ бошлиғи, давлат хавфсизлиги капитани Калмиков томонидан тайинланганман.

**Савол:** Тезкор гуруҳ томонидан оммавий ҳибсга олишлар қандай ҳужжатлар (материаллар) асосида амалга оширилган?

**Жавоб:** Ҳибсга олинганлар айби қандай аниқланган ва улар нима асосида қамалганлари менга номалум. Бу ишлар НКВД вилоят бошқармаси, унинг туман бўлими, тезкор гуруҳ раҳбарлари кўрсатмаси билан бажариларди. Шу тўғрисида уларнинг айблари билан қизиқмаганман. Шахсан ўзим бир гуруҳ шахсларни ҳибсга олиш операциясини амалга оширганман. Улар "26 Баку комиссарлари" номи Самарқанд шойи тўқши фабрикасида ишларди.

Воқеа шундай бўлган эди: 1938 йил ўрталарида мени НКВД вилоят бошқармаси бошлиғи Калмиков чақириб, 41 кишининг исми-шарифи ёзилган рўйхат-

ни берди ва қаршисига алоҳида белги қўйилган кишиларни зудлик билан қамоққа олишни буюрди. Барчаси ушбу фабрика ишчи-хизматчилари эди. Ана шу рўйхатдаги 41 та фамилиядан 29 тасига белги қўйилганди. Улар нимада айбланганди? Масалан:

**Шарипов Ғулмуҳаммад** – миллати эрони, катта акиси 1935 йилдан буён Эронда яшади.

**Зокиров Исо** – миллати эрони, отаси эшак савдогари бўлган.

**Иброҳимов Собир** – миллати эрони, 1927 йилда отаси отларни олиб-сотиш билан шуғулланган.

**Ҳасанов Олим** – миллати эрони, қулоқнинг ўғли, отасининг хунармандчилик устaxonаси бўлган. Ҳозирги пайтда отаси Эронда.

Уларнинг жиноятини фош этувчи бирор-бир ҳужжатнинг ўзи йўқ эди. Лекин қаршисига белги қўйилган фамилиядаги кишиларнинг барчаси ҳибсга олинди. Ҳатто қорхона томонидан бу шахслар ҳақида берилган маълумотнома ҳам текшириб кўрилмади. Мен ана шу маълумотлар асосида тақдимномалар тайёрладим ва уларни тергов олиб бориш учун тезкор вакиллар ихтиёрига топширдим.

**Савол:** Сиз юқорида номларини келтирилганларнинг бирортасини ҳам махсус тоифадаги кишилар (яъни, аксилнқилобий фаолиятда айбланиб қамоққа олинувчилар) қаторига қўшиб бўлмайдми. Улар нима асосида қамалган?

**Жавоб:** НКВДнинг вилоят бошқармасида ишлай бошлаган биринчи кунларимданок барча ходимлар олдида Калмиков томонидан бир вазифа – қандай қилиб бўлса-да, кўпроқ кишини жавобгарликка тортиш масаласи қўйилган эди.

**Музаффар МУҚИМОВ, СамДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси вилоят музейи директори.**



Mazkur maqolaning to'liq matnini ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

**So'nggi yillarda tumanda turli davrlarga tegishli sopol buyumlar, tangalar, qadimiy qabrtoshlar, mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan tepaliklar aniqlanmoqda. Bularning barchasi hududning qadimiy tarixga egaligini ko'rsatadi.**

Xususan, yaqinida tumanning Zormon va Mash'al qishloqlari hududidagi tepaliklarda qadimiy shahar qoldiqlari aniqlandi. Tarixchi Sharifjon Saxatov va shu tumanda yashovchi Akmal Hamroyev hududdagi tepaliklar tarixini o'rganish davomida antik davrga oid sopol idishlar va odam suvayining qoldiqlarini topishdi.

- Hudud Zarafshon daryosi bo'yida joylashgani bois qadimda muhim savdo va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan, - deydi A.Hamroyev. - Buni tepalikdan chiqqan topilmalar davridan kelib chiqib, taxmin qildik. Yaqinda Qozog'iston va Misrdan kelgan ommaviy axborot vositalari vakillari va arxeologlar bu yerga qiziqish bildirib, tadqiqotlar olib borishdi. Shuningdek, Zormon qishlog'ida somoniylar sulolasining asoschisi Ismoil Somoniylar yashagani va shu yerda vafot etgani to'g'risida ma'lumotlar topilgan hududning qadim tarixidan dalolat beradi.

Jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida qayd etilishicha, Amir Ismoil bemor bo'lib bir qancha vaqt yotadi. Tabiiyki: «Juyi muliyonning havosi xushroq», deb uni o'zining xos mulkidan bo'lgan Zormon qishlog'iga olib bordilar: «Bu yerning havosi unga muvofiqroq keladi», deydi. Amir bu qishloqni yaxshi ko'rar va ov qilish uchun hamma vaqt o'sha yerga borardi. U yerga bog' qurgan edi. Bir muddat u yerda bemor yotib, oxiri ikki yuz to'qson beshinchi yili safar oyining o'n beshinchisida (907-yil 25-noyabr) xuddi shu bog'da katta bir daraxt tagida vafot etgan. Bundan ko'rinadiki, Ismoil Somoniyning qabri Zormon qishlog'i hududida bo'lishi va keyinchalik xoki amirning yaqinlari tomonidan Buxoroga olib borilgan bo'lishi ham mumkin.

Tarixchi Sharifjon Saxatovning ta'kidlashicha, "Zormon" toponimi turk-nayman qabilalaridagi beshta katta urug'ning nomidan kelib chiqqan. Aslida bu nom hududning Zarafshon daryosi bo'yida, ya'ni dehqonchilik uchun qulay bo'lgan suvli joyda joylashganidan kelib chiqqan (Zarmon - zarli joy ma'nosida). Zormon bilan chegaradosh Mash'al qishlog'i esa avval Qizilmayyoq yoki Qiziloyoq nomi bilan atalgan shahar bo'lgan. Manbalarda keltirilishicha, bu shahar savdo-sotiq yo'lida mayoq vazifasini bajargan bo'lsa,

## Mehr



**Onasi Mirhosil va ukalarini qarg'agancha hovli supurardi. Bundan zada bo'lib qolgan Mirhosil ko'z ostidan iltijoli nigoh bilan otasiga qaradi. U har doimgidek beparvo. Nonushta unga tatimadi. Onam bizni o'zi tuqqanmikin yoki asrab olganmikan-a? Xayolan o'ziga savol berardi u. 12 yoshga to'lyapman-u, biror marta suyib erkalaganini eslay olmayman...**

"Mirhosil, tez bo'! Dalaga chopiqqa bor", degan ovozdan cho'chib tushdi.

- Oyi, bilagimdag chiqqonga qarang, issiqda shishib ketdi. Qattiq og'riyapti. Do'xtirga olib boring.

- Uyda pul yo'q, o'lmaysan, dalaga jo'na! - dedi onasi sovuqqina.

## Past Darg'omda yangi arxeologik obyektlar va topilmalar aniqlandi

Olimlar ularning tarixi va davrini o'rganadimi?



boshqa bir ma'lumotga ko'ra, turkmanlarning "qiziloyoq" urug'i qadimda quloq qilinishi natijasida shu qishloqqa ko'chib kelgan va shu nom bilan yuritilgan.

- Zarafshon daryosi yaqinida joylashgan ushbu hududlarda Laylakuytepa, Sariqtepa va Qo'rg'on tepaliklari mavjud, - deydi Sh.Saxatov. - O'rganish davomida tepaliklardan topilgan sopolar antik davrga, ya'ni miloddan avvalgi IV asrga tegishligi aniqlandi. O'sha davrda hudud shahriston bo'lgan, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlangan. Atrofida pishiq g'ishtdan, arkali yerosti yo'li qurilgan. Keyinchalik bu joylardan yerto'la, qabr, suv yo'li yoki chillaxona sifatida foydalanilgan.

Tumanda 300 dan ortiq ana shunday arxeologik yodgorlik mavjud. Lekin ularning

150 tasi madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan, xolos. Ko'plab tepaliklarga nom berilmagan, muhofaza belgilari o'rnatilmagan, obyektlar va topilmalarning aniq davri yo'q. Buning ustiga hududlarda aholi tomonidan chorva mollaring boqilishi, noqonuniy qazishma ishlari olib borilishi holatlari kuzatilmoqda. Arxeolog olimlar ushbu yodgorliklarda tadqiqot olib borib, hududni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirishni o'ylab ko'rsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, tepaliklarning Zarafshon daryosi bo'yi yaqinida joylashganini hisobga olsak, daryo bo'yida dam olish va diqqatga sazovor maskanlar tashkil etish kerak. Bu nafaqat ziyorat turizmini rivojlantirish, balki aholining moddiy-ma'naviy hayotini boyitishga ham xizmat qiladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Yangi kitob



## "Asragin"

**Otabek Yunusov samarqandlik ijodkor yoshlardan. Otabek yoshligidan badiiy ijodga mehr qo'ygan oilada o'sib ulg'aydi. Hali maktada o'qib yurganidayoq she'rlari bilan ko'pchilikning e'tiboriga tushdi. Yaqinda uning "Asragin" nomli kitobi nashr qilindi.**



Kitobda muallifning eng sara she'rlari jamlangan. Uurlarda shu yurt farzandi ekanligidan faxrlanish, ota-onaga hurmat, muhabbat, do'stlik tuyg'ulari madh etilgan. Har bir she'rdagi yurt mehri ezgulik, vaqtning qadriga yetish, umrning o'tkinchi ekanligi badiiy tarzda o'quvchiga yetkaziladi, kitobxonni o'ylashga, tafakkur qilishga undaydi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

G'.HASANOV.

**Navbatchi:**

X.ERNAZAROVA.

**Sahifalovchi:**

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 909 nusxada chop etildi. Buyurtma 396. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

